

ZAMONAVIY FOOD FOTOGRAFIYASIDA QO‘LLANILAYOTGAN KOMPOZITSIYA VA KREATIV TEXNIKALAR

To‘rayev Abduraxmon Dilshod o‘g‘li

Kamoliddin Behzod nomli Milliy rassomlik

va Dizayn instituti, Kamoliddin Behzod nomli

Milliy rassomlik va Dizayn instituti “Kompyuter

grafikasi va badiiy surat” mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Bugungi raqamli makonda ovqat fotografiyasi restoran menyulari doirasidan chiqib, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarning muhim vizual vositasiga aylandi. Taomning tashqi ko‘rinishi iste’molchining qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatib, ishtaha va qiziqishni shakllantiradi. Mazkur maqolada zamonaviy food fotografiyasida qo‘llaniladigan asosiy kompozitsiya elementlari va tamoyillari — uchlik qoidasi, markaziy va asimmetrik joylashuv, diagonal chiziqlar, negativ fazo, chuqurlik va fokusni boshqarish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, tabiiy va sun’iy yoritish uslublari, kamera burchagini tanlash va vizual aksent yaratishga xizmat qiluvchi kreativ texnikalar yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari food fotografiyada estetik uyg‘unlik va vizual ta’sir kuchini oshirishda kompozitsiya va yoritishning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Food fotografiya, kompozitsiya tamoyillari, uchlik qoidasi, negativ fazo, vizual muvozanat, chuqurlik va fokus, yoritish uslublari, kreativ texnikalar, estetik uyg‘unlik

Аннотация. В условиях цифровой среды фуд-фотография вышла за рамки ресторанных меню и стала важным визуальным инструментом в социальных сетях и онлайн-платформах. Внешний вид блюда оказывает прямое влияние на восприятие и выбор потребителя, формируя аппетит ещё до дегустации. В данной статье анализируются ключевые композиционные элементы и принципы современной food-фотографии, включая правило третей, центральную и асимметричную композицию, диагональные линии, негативное пространство, глубину кадра и управление фокусом. Особое внимание уделяется естественному и искусственному освещению, выбору ракурса съёмки и применению креативных приёмов. Сделан вывод о том, что грамотная композиция и свет являются основой визуальной выразительности и эстетической ценности фуд-фотографии.

Ключевые слова: Фуд-фотография, композиционные принципы, правило третей, негативное пространство, визуальный баланс, глубина резкости, освещение, креативные техники, визуальная эстетика

Abstract. In today's digital environment, food photography has expanded beyond restaurant menus to become a powerful visual tool across social media and online platforms. The visual appearance of food directly influences consumer perception, stimulating appetite before the actual tasting. This article examines the key compositional elements and principles applied in contemporary food photography, including the rule of thirds, central and asymmetrical composition, diagonal lines, negative space, depth, and focus control. In addition, the study explores creative techniques such as natural and artificial lighting, camera angle selection, and visual accent creation. The findings highlight that effective composition and lighting play a decisive role in enhancing aesthetic harmony and visual impact in food photography.

Keywords: Food photography, composition principles, rule of thirds, negative space, visual balance, depth of field, lighting techniques, creative methods, visual aesthetics

Kompozitsiya elementlari va tamoyillari. Ovqat fotografiyasida kompozitsiya – bu kadr ichidagi obyekt va elementlarning joylashuvi va o'zaro mutanosibligi bo'lib, u tomoshabinning diqqatini kerakli nuqtalarga yo'naltirad. To'g'ri kompozitsiya kadrda balans, chuqurlik va estetik uyg'unlik baxsh etadi. Quyida food fotografiyada eng muhim kompozitsion tamoyillar keltirilgan:

Uchlik qoidasi – fotografiyadagi eng asosiy kompozitsiya tamoyillaridan biri bo'lib, kadrni vertikal va gorizontal bo'ylab uch qismga bo'luvchi chiziqlar (to'qqizta teng bo'lak) yordamida asosiy obyektlarni joylashtirishni nazarda tutadi. Ya'ni, suratdagi eng muhim elementlar tasvir markazidan biroz chetaroqda, ushbu chiziqlar kesishgan nuqtalar atrofida joylashtirilsa, kadr yanada muvozanatli va qiziqarli ko'rinadi. Uchlik qoidasi bo'yicha komponovka tasvirga tabiiylik va balans beradi, tomoshabinning nigohi suratdagi asosiy nuqtalarga oson yo'naltiriladi. Ko'plab kameralar va smartfonlar tasvirga olish paytida ushbu grid (panjarali) rejimni ko'rsatish funksiyasiga ega bo'lib, fotograflarga uchlik qoidasi tamoyilini amalda qo'llashni yengillashtiradi.

Fotograf Michael Freeman bu haqda shunday yozadi: "Uchlik qoidasi – bu vizual tafakkurni boshqarishning soddalashtirilgan, ammo kuchli vositasi. Undan chekinish ham mumkin, ammo uni tushunmasdan chekinish – bu xatodir¹."

Ba'zi hollarda suratga olinayotgan taom yoki obyektning kadr markaziga joylashtirish – **markazlashtirilgan kompozitsiya** – ishlatiladi. Bunday usul tomoshabinga surat mavzusini bir qarashda aniq tushunish imkonini beradi, chunki

¹ Freeman, M. *The Photographer's Eye: Composition and Design for Better Digital Photos*. – Burlington, MA: Focal Press, 2007. – 192 b.

diqqat markazida aynan bitta ob'ekt turadi. Markazlashgan kompozitsiya aksar hollarda simmetriya bilan qo'shib, tasvirga grafikli tartib va rasmiylik hissini beradi. Masalan, to'g'ri yuqoridan (90°) olingan tort yoki pitsa suratida tort markazda, atrofida esa simmetrik tarqalayotgan bo'laklar yoki bir xil elementlar bo'lishi mumkin – bu ko'zga yoqimli va tartibli ko'rinish hosil qiladi. **Simmetrik kompozitsiya** muvozanat hissini kuchaytiradi va ko'pincha estetik jihatdan zavqli tuyuladi.

Shu bilan birga, markaziy va simmetrik kompozitsiya har doim ham ijodiy eng yaxshi yechim bo'lavermaydi. Mutlaqo markazda joylashgan obyektli kadr ba'zan "statik" va zerikarli ko'rinishi mumkin – go'yoki fotograf tomoshabinga barmog'i bilan "mana, aynan shu narsaga qara!" deb ko'rsatgandek bo'ladi. Tasvirga biroz qiziqish va dinamik ruh baxsh etish uchun, markazlashtirish o'rniga ob'ektni kadr chetlarigaroq siljitish yoki kompozitsiyada asimmetriya joriy etish tavsiya qilinadi. Masalan, asosiy taom piyolasini biroz yon tomonga siljitib kadrda kiritish va ikkinchi darajali elementlarni qarama-qarshi burchakda muvozanat uchun joylashtirish mumkin – bu holda surat ham noan'anaviy, ham muvozanatli chiqadi. Bunday asimmetrik yondashuvda asosiy "qahramon" (hero) taom aniq ajralib turishi, unga ikkilamchi obyektlar e'tiborni chalg'itmasligi lozim.

Xullas, markazlashtirish sodda va tushunarli bo'lsa-da, ijodiy kompozitsiyalar ko'pincha asimmetriya va noto'g'ri markazlashtirish hisobiga erishiladi.

Kompozitsiyaga **diagonal chiziqlarni** kiritish tasvirga harakat va energetika tuyg'usini qo'shadi. Foto san'atida odatda vertikal va gorizontal chiziqlarni to'g'ri kadr chetlariga parallel holatda ushlab tavsia etiladi (xususan, me'moriy suratlarda). Ammo ovqat fotografiyasida ba'zan ongli ravishda diagonal elementlardan foydalanish suratni yanada "jonli" qiladi. Diagonal kompozitsiya statik va bashang ko'rinvchi kadrlarga o'ziga xos dinamizm olib kiradi – burchak ostida joylashgan unsurlar ko'rinishga harakatlanish illuziyasini bag'ishlaydi. To'g'ri va parallel chiziqlar bilan tuzilgan kadr tartibli, biroq biroz zerikarli va "tekis" taassurot qoldirsa, diagonal chiziqlar kiritilgan kadr esa kutilmagan va ko'zga qiziqroq tuyuladi.

Negativ fazo – bu kadrdagi bo'sh, ya'ni asosiy obyektlar bilan band bo'lmagan hududdir. Kompozitsiyada negativ fazoni to'g'ri qo'llash suratga nafislik va grafik ekspressivlik qo'shishi mumkin. Yangi boshlovchi fotograflarga ko'pincha kadrlni maksimal darajada obyektlar bilan to'ldirish, ya'ni "yaqinroq olish" tavsiya etiladi. Albatta, kadrdan ortiqcha, ikkinchi darajali detallarni chiqarib tashlash orqali diqqatni jamlash ma'lum darajada to'g'ri yondashuvdir. Biroq, ayni paytda, ba'zi tasvirlarga ataylab bo'sh joy qoldirish – ya'ni negativ bo'shliqni katta andozada qo'llash – ularga yanada kuchli va ta'sirchan vizual obraz baxsh etishi mumkin.

Muhim jihati shundaki, negativ fazo ham kompozitsiyaning faol elementi sifatida ko'rilishi lozim. Avvalo, fotograf obyektivdan qarab, kadrdagi obyektlar orasidagi bo'sh hududlarni "ko'ra bilishga" o'rganishi kerak – go'yoki bo'shliqning

o‘zi ham alohida shakl sifatida qabul qilinadi. Shundan keyingina bo‘sh maydonni boshqa obyektlar bilan vizual muvozanatda joylashtirish mumkin bo‘ladi. Masalan, sabzi va zanjabil qo‘shilgan sho‘rva tasvirini olaylik: agar fotograf uchta sho‘rva to‘ldirilgan idishni yaqindan, kadrni to‘liq to‘ldirib olganida ham ehtimol yaxshi surat chiqardi. Ammo muallif boshqa yo‘l tanlagan – kadrning yuqori va chap tomonida anchagina bo‘sh joy qoldirilib, sabzilar, kesilgan taxta va salfetka bilan biroz “yopilgan”. Natijada **negativ bo‘shliq** ko‘zni surat markaziga – quyi qismda qo‘llar ushlab turgan sho‘rva idishiga – yetaklaydi. Bunday kompozitsiya tasvirga soddalik va nafislik bergan; agar kadr butunlay to‘ldirilganida, surat mutlaqo boshqacha (vizual jihatdan og‘irroq) ko‘rinardi. Demak, bo‘sh hududdan foydalanish tasvirni ortiqcha detaldan xoli qilib, minimalistik go‘zallik yaratadi va asosiy subyektni ajratib ko‘rsatadi.

Ikki o‘lchovli suratda tasvirga **chuqurlik** berish – tomoshabin nazarida uch o‘lchovli makon hissini uyg‘otish – muhim kompozitsion mahoratdir. Ovqat fotosuratlarida chuqurlikka erishish uchun bir nechta usullar qo‘llanadi. Ulardan biri – **kam chuqurlikdagi tasvir kesimi (DOF – Depth of Field)** bilan ishlash, ya‘ni fon va old planning xiralashuvi hisobiga asosiy ob‘ektni ajratib ko‘rsatishdir. Masalan, diafragmani keng ochib suratga olish orqali fokus chuqurligini sayozlashtirish mumkin – buning natijasida faqat asosiy taom aniq ko‘rinib, undan oldi-va ortdagi narsa va buyumlar xira bo‘lib chiqadi. **Shallow focus** deb ataladigan bu uslub **bokeh** effekti hosil qiladi: fonning mayin xiralashuvi orqasida taomning tuzilishi va detallari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, yaqin planda turgan bir kosa sho‘rvaning ustidan chiqqan bug‘ni yoki pirojniy yuzasidagi yaltiroq shinni aniq fokusda ko‘rsatib, orqa fondagi idish-tovoqni xiralashtirish taomning jozibasini oshiradi. Shu tariqa **fokus nuqtasi** – ya‘ni suratning asosiy e‘tibor markazi – tomoshabin nigohini tortadi, ikkilamchi detallar esa xira fon sifatida qoladi.

Chuqurlik hissini oshirishning yana bir yo‘li – kompozitsiyada **old va orqa plan elementlarini** kiritishdir. Kadrda asosiy subyekt (masalan, bitta likopcha taom)dan tashqari, unga nisbatan yaqinroq masofada, biroz xiralashgan holda turuvchi oldingi plan detalini (masalan, xuddi shu taomning tarkibiy mahsulotlari yoki qoshiq) va uzoqroqda fon elementini (masalan, xira stol bezaklari yoki boshqa idishlar) joylashtirish mumkin. Bunday qatlamli kompozitsiya suratga vizual chuqurlik beradi – tasvir “tekis” bo‘lib qolmaydi. Bunda ham asosiy e‘tibor **fokus nuqtasi** bo‘lib qolayotgan bosh obyektga qaratiladi, boshqa qatlamlar esa unga kontekst va muhit hissini qo‘shadi.

Kompozitsiyada **fokus nuqtalari** deganda, kadrda tomoshabinni o‘ziga jalb qiluvchi asosiy vizual markazlar tushuniladi. Odatda, bitta suratda bitta bosh “qahramon” taom va unga ko‘makchi-aksent rolidagi bir-ikki kichikroq element bo‘lishi mumkin. Muhimi, kadrda qaysi element eng muhim ekanini fotograf avvaldan

belgilashi lozim va barcha kompozitsion yechimlar (yorug‘lik, o‘q, rang, kesim chuqurligi va hokazo) shu **asosiy fokus nuqtasini** ta’kidlashga xizmat qilishi kerak. Masalan, bir nechta idish qo‘yilgan dasturxon suratida fotograflar ko‘pincha bitta idishni boshqalariga qaraganda aniqroq fokusda qoldirib, qolganlarini ataylab biroz xiralashtiradi – bu orqali tomoshabinga “avval mana shu taomga e’tibor ber” deb ishora qilinadi. Shuningdek, ikkilamchi elementlarning joylashuvi ham asosiy nuqtaga bo‘ysundiriladi: masalan, asosiy taomning qarama-qarshi tomoniga unga vizual muvozanat hosil qilish uchun kichikroq bir predmet qo‘yilishi, lekin u diqqatchilik qilmasligi kerak. Xulosa qilib aytganda, kompozitsiyada chuqurlik va fokusni boshqarish – suratga realizm va ko‘rkamlik berish, shuningdek, tomoshabinning nigohini surat ichida kerakli trajektoriya bo‘ylab boshqarish vositasidir.

Kreativ texnikalar va uslublar. Ovqat fotografiyasida yuqori sifatli surat yaratish faqat kompozitsiya bilangina cheklanib qolmaydi. Tasvirni chiroyli, ishtahabaxsh va e’tiborga molik qilish uchun bir qator **ijodiy texnikalar** va amaliy usullar qo‘llanadi. Bunga yoritish, taomni bezash, kamera burchagini tanlash, texnik asbob-uskunalar va suratlariga raqamli ishlov berish kiradi.

Yoritish uslublari: sun’iy va tabiiy yorug‘lik. **Yorug‘lik** – har qanday fotografiyaning yuragi bo‘lib, ayniqsa ovqat suratida uning sifati va yo‘nalishi taomning ko‘rinishiga bevosita ta’sir qiladi. To‘g‘ri tanlangan yoritish taomning rangini tiniqroq, teksturasini jonliroq qilib ko‘rsatadi, nojo‘ya yoritish esa eng mazali taomni ham xira va jozibadorsiz qilib qo‘yishi mumkin. Ovqat fotosuratlarida **tabiiy yorug‘lik** juda qadrlanadi – kun yorug‘ida, deraza yonida tushadigan yumshoq diffuz nur taomning tabiiy go‘zalligini ochib beradi. Tabiiy yorug‘lik ostida ranglar to‘g‘ri chiqadi, mahsulotlarning yangi ko‘rinishi ta’minlanadi. Masalan, deraza yonida tushayotgan diffuz (pardadan o‘tgan) quyosh nuri sabzavotlar va salatlar rangini yorqin, suvli ko‘rsatadi, taom atrofida yumshoq soyalar hosil qilib, uch o‘lchovlilik beradi.

Biroq, har doim ham tabiiy yorug‘lik mavjud emas yoki uni nazorat qilib bo‘lmaydi. **Sun’iy yorug‘lik** manbalari – studiya chiroqlari, softbox (yumshoq tarqoq yorug‘lik qutisi), LED panellar va boshqalar – fotografga yoritishni to‘liq boshqarish imkonini beradi. Masalan, professional suratga olishda softbox yordamida yorug‘likning tushish yo‘nalishi va shiddati aniq sozlanadi: ortiqcha qo‘pol soyalar va akslar bartaraf etiladi, to‘qimalarni ta’kidlash uchun yonboshdan yumshoq nur beriladi. Sun’iy yoritishda fotograf **rang haroratini** ham nazorat qilishi mumkin – maxsus chiroqlar yoki filtrlar orqali iliq (sariq) yoki sovuq (ko‘k) tus berib, taomning kayfiyatini o‘zgartiradi. Misol uchun, asal qo‘shilgan ichimlik suratini iliqroq ko‘rsatish uchun biroz issiq rangli yorug‘likdan foydalanish maqsadga muvofiq.

Yoritishni tanlashda uning **yo‘nalishi** ham muhim ijodiy omil hisoblanadi. *Yon yoritish* (sidelight) – ovqat fotosuratlarida keng qo‘llanadigan uslub. Yon tomondan tushgan yorug‘lik taomning teksturasini yaqqol chiqaradi.

Orqa yoritish (backlight) – yorug‘lik manbai taomning orqa tomonida joylashganda, masalan, stolda orqadan quyosh nuri tushganda. Bu usul suyuq va shaffof mahsulotlarda ajoyib natija beradi: sho‘rvalar, ichimliklar yoki salat barglari orqa yoritishda yarqirab, “yorishib” ko‘rinadi. Orqa yoritish ovqatning bug‘ini yoki ichidagi tarkibni ko‘rsatishda ham yordam beradi, lekin kamera tomoni qorongiroq tushmasligi uchun old tomondan reflektor yoki qo‘shimcha yorug‘lik bilan balanslash kerak bo‘ladi.

Old yoki to‘g‘ridan yoritish – kameraga yaqin tomondan nur tushishi. Bu holatda taom yassi ko‘rinish xavfi bor, chunki soyalar ovqat ortiga tushadi va ko‘zimizga ko‘rinmaydi. Shu sabab old yorug‘lik kamroq qo‘llanadi yoki aksent nuri sifatida foydalaniladi.

Yoritish uslubidan qat’i nazar, muhim tamoyil – taom **asosiy yoritish manbaiga** nisbatan optimal joylashuvi. Ko‘pincha **bir tomonlama yon nur** ovqat fotosuratlari uchun eng foydali: u bir tarafdin yorug‘, ikkinchi tarafdin biroz soya berib, hajmni ko‘rsatadi. Studiyada sun‘iy yorug‘lik bilan ishlaganda bitta yirik softbox yon tarafga va biroz yuqoriga qo‘yilib, qarama-qarshi tomonga katta oq reflektor o‘rnatilsa, tabiiy deraza nuri efekti hosil bo‘ladi – bu ko‘plab professional food fotografiya uslublarining asosi sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Freeman, M. *The Photographer's Eye: Composition and Design for Better Digital Photos*. – Burlington, MA: Focal Press, 2007. – 192 b.
2. Том Энг, Большая книга о фотографии. Полный курс приёмов и секретов для получения великолепных снимков. 2013, Изд. АСТ, Кладес, с.408
3. Dujardin, H. *Plate to Pixel: Digital Food Photography and Styling*. – Berkeley, CA: New Riders, 2011. – 288 b.